


“Simmetriya” deb biror narsaning har ikki tomondan bir xil joylashishiga aytiladi. Simmetriya qadim zamonlardan beri go'zallik shartlaridan biri bo'lib kelgan. Sivilizatsiya boshidan odamzod simmetriya haqida tasavvurga ega edi, o'z inshootlarini uning qonunlariga ko'ra qurdi, uy-ro'zg'or buyumlarini yasadi. Ammo tabiatda mutlaq simmetriya va asimmetriya deyarli yo'qligini bilishimiz kerak. Masalan, kiyikning shoxlariga qarasak, bir qarashda ular simmetrik bo'lib tuyuladi. Yaqindan qaraganda esa, albatta, ba'zi farqlarni topamiz.


Kompozitsiyalar simmetrik va asimmetrik bo'lishi mumkin. Rassomlar ko'pincha rasmning simmetrik qurilishidan foydalanadilar. Simmetrik kompozitsiyada predmetlar rasmning markaziy o'qiga nisbatan deyarli ko'zgudagidek aks etadi. San'atdagi simmetriya hayotiy haqiqatga asoslangan. Masalan, odamning qomati, kapalak, qor parchasi va boshqalar simmetrik yaralgan.




Kapalak andazasini tayyorlang

1**2**


3




4



5



6



Atrofingizdan iloji boricha ko'proq simmetrik narsalarni toping.

Rassomlar rasm chizishda to'liq bo'lmagan simmetriya usulidan foydalanadilar. Masalan, bulutlar va daraxtlar ko'l, daryo yoki hovuz suvlari yuzasida ko'zguda aks etgandek chiroyli tasvirlanadi.

Suvdagi aksni chizish uchun quyidagilarni bilish muhim:

- suv yuzasi – suv tepasidagi hamma narsani aks ettiruvchi ko'zgu;
- suv yuzasi har doim ham sokin turmaydi, unda katta-kichik to'lqinlar yoki yengil mavjlar bo'lishi mumkin;
- suvning rangi yo'q, shaffof, shuning uchun suv nimani aks ettirsa, shu rangga kiradi.

Gradiyent kapalak

11



Dekorativ peyzaj

12

